

**MADANIY TURIZMNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI.**

*Shoyatbekov Satimboy Yashnarbek o'g'li*  
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi*  
*soyibjonovnuriddin58@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmning yo'nalishlaridan biri bo'lgan madaniy turizm, uning ahamiyatli jihatlari, madaniy turizmning dunyo miqiyosida tutgan o'rni haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, yo'nalish, tarix, rivojlanish, madaniyat, madaniy turizm, soha, davlat, iqtisodiyot.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается культурный туризм, одно из направлений туризма, его важные аспекты, роль культурного туризма в мировом масштабе.

**Ключевые слова:** туризм, дестинация, история, развитие, культура, культурный туризм, промышленность, государство, экономика.

**Abstract:** Cultural tourism, one of the directions of tourism, its important aspects, the role of cultural tourism on the world scale is covered in this article.

**Key words:** tourism, destination, history, development, culture, cultural tourism, industry, state, economy.

Bizga ma'lumki, hozirgi paytda shiddat bilan rivojlanib kelyotgan sohalardan biri bu turizm sohasi. Turizm bu hayotimizning ajralmas qismidir. Umrda sayohatga chiqmagan insonning o'zi bo'lmas kerak. Hech bo'lmaganda insonlar o'zlariga yaqin bo'lgan ziyoratgohlarga, masdaniy bog'larga yoki boshqa viloyatdagi qarindoshlarinikiga borishadi. Aslini olib qaraganda bu ham turizmning bir turi. Turizmning kundan kunga yangidan yangi yo'nalishlari chiqib kelmoqda. Ularni qay darajada rivojlantirib borish bu davlatga bog'liq. Dunyoda eng ommabop bo'lgan turizm yo'nalishlaridan biri bu madaniy turizmdir ya'ni madaniy turizm tarixiy, madaniy yoki geografik diqqatga sazovor joylarga tashriflarni o'z ichiga olishi bilan boshqa turizm yo'nalishidan ajralib turadi.

Bunday sayohatlarning ko`zlangan maqsad turistik diqqatga sazovor joylar tarix, arxitektura, san'at yodgorliklari, tabiiy va etnik xususiyatlar, xalqing tarixiy va zamonaviy hayoti va etnografik madaniyati xalq hunarmandchiligi bilan tanishishdan iboratdir.

Turizmning rivojlansh tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab 1815-yilda Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan. Turizmning asoschisi ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkillashtirdi va u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi. 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhleri AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshladi. Deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davridan boshlab faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo`lib turar edi. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot va sayyohlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan[1].

Madaniy turizmni nafaqat turizm turlaridan biri, balki shahar hududini rivojlantirish bilan chambarchas bog`liq holda shaharning madaniy sohasini rivojlantirishning eksport strategiyasi sifatida ham ko`rib chiqsa bo'ladi, desak mubolag`a bo`lmaydi. "Madaniy turizm" atamasi nisbatan yaqinda – XX asrning 80-yillarida paydo bo`lgan va "meros turizmi" deb nomlangan hodisadan kelib chiqqan. Bu hodisa ko`p sabablarga ko`ra XX asrning 70-yillaridan boshlab butun dunyoda juda mashhur bo`lib kelgan. O`shandan beri biz madaniy merosni tarixiy, harbiy, adabiy, badiiy deb talqin qildik va "madaniy turizm" atamasi barcha diqqatga sazovor joylar bilan tanishishni o`z ichiga olgan bo`lsa-da, u ko`proq badiiy meros ya`ni san'at, arxitektura bilan bog`liqligini ko`rishimiz mumkin.

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotning eng yirik yuqori daromad keltiradigan va eng dinamik tarmoqlaridan biridir. Shuning uchun ko'p yillar davomida turizm mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradigan va mamlakat aholisining turmush darajasi va

sifati va turmush darajasiga ta'sir qiluvchi soha sifatida qaralib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari tomonidan turistik xizmatlar sifatini yaxshilash, turizm sohasidagi kadrlar malakasini oshirish, milliy turistik mahsulotlarni chet elda faol targ'ib qilish va respublikaga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonini ko'paytirish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar belgilangan.

Bugungi kunda butun dunyoda xalqaro sayyohlikning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda, shuning uchun mezbon mamlakatlarning madaniy va tabiiy resurslaridan foydalanish ham tobora ko'paymoqda. Dunyoning turli burchaklaridagi xalqlarga nisbatan sayyohlarning tabiiy qiziqishlari eng kuchli sayyohlik motivlaridan biri bo'lib kelmoqda. Madaniy va ma'rifiy maqsadlarga ega bo'lgan turizm soni ortib bormoqda va jamiyatni rivojlantirishda madaniyatni yangi tushunish va dunyoda madaniy xilma-xillikni saqlab qolish zarurligini anglash madaniy turizmni mintaqaviy rivojlanish manbai sifatida, shuningdek, ijtimoiy va madaniy sohaga, ekologiya, tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro munosabatlarga ta'sirini kengaytiradi. Buning sababi zamonaviy dunyoda turizm asosan iqtisodiy hodisadan ijtimoiy va madaniy tartib fenomeniga aylanadi va madaniy turizm sohasini o'rganish va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj inson uchun madaniy-ma'rifiy faoliyatning muhim rolini tushunish, tarix, din, an'analar, turmush tarzi va uslubining o'ziga xos xususiyatlarini, umuman, boshqa xalqlarning madaniyatini bilish uchun insonning madaniy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun shart – sharoitlar yaratish zarurligini e'tirof etishga asoslanganligini bilamiz. Inson hayotining bu tomonlarini yanada yaxshiroq tushunish madaniy turizm tufayli madaniyat egalari bilan bevosita muloqot qilish natijasida shakllanib boradi hamda turizm dunyo tamaddumining bosh gultoji bo'lib, hozirgi kunda sayohat insoniyat maqsadlarining asosini tashkil qilib kelmoqda. Ayniqsa, milliy turizmning rivojlantirish istiqbollari, O'zbekistonda turizm industriyasining jahon bozoridagi mavqeini oshirishga ko'maklashmoqda hamda fikrimizning isboti sifatida bugungi

kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarning barpo etilayotgani, ishchi o'rinlari sonining ko'payishi, malakali mutaxassislarning ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko'payayotganligini yaqol ko'rishimiz mumkin. Albatta O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Shuni ham e'tiborga olishimiz lozimki, madaniy turizm sayyohlik turizmning bir shakli bo'lib, uning maqsadi tashrif buyuradigan joyning madaniyati va madaniy muhitini, shu jumladan landshaftni, aholining an'analari va ularning turmush tarzi, badiiy madaniyat va san'atni, mahalliy aholining bo'sh vaqtlarini o'tkazishning turli shakllarini tanishishdan iboratdir. Madaniy turizm madaniy tadbirlarni, muzeylar, madaniy meros ob'ektlarini, mahalliy aholi bilan aloqalarni yaxshilashni, xalqning turmush sharoitini, amaliy san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu munosabat bilan, har qanday inson uchun, madaniy turizm – bu madaniyatning muayyan ob'ekti bilan tanishish, shuningdek, uning sharhini tushunish, atrof-muhit orqali yangi ma'nolarni o'rganish, kontekstni baholash ya'ni joyning atmosferasini his qilish, boshqacha aytganda, joy va uning aholisining nomoddiy madaniyatini bilishdan iboratdir.

Shunday qilib, mahalliy aholi va sayyohlar manfaatlari o'rtasida murosaga erishish madaniy turizm sohasidagi strategik vazifalardan biridir va bunday sharoitda shaharni rivojlantirish uchun madaniy turizmning asosiy iqtisodiy maqsadi ish o'rinlarini yaratish va madaniyat tashkilotlari foydasiga turizmdan iqtisodiy imtiyozlarni taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish, shahar rejalashtirishga qaratilgan chora –tadbirlarga kelsak, dastlab, yangi hududlarni rivojlantirish orqali sayyohlik oqimlarini boshqarishdir, madaniy turizmni rivojlantirish strategiyasi ajralmas element sifatida qaralishi kerak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, mahalliy aholining madaniy tovarlar harid qilishdagi faolligi, shu jumladan sayyohlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan faoliyat darajasi yerning sayyohlik jozibadorligini belgilovchi zarur omil hisoblanadi. Madaniy turizm sohasida samarali boshqaruv nafaqat sayyohlar orasida, balki mahalliy

aholi orasida ham madaniy tovarlar haridini oshirishga yordam beradi. Yana bir bor ta'kidlaymizki, shaharning aholisi joyning madaniyati va o'ziga xosligi bilan taassurot qoldiradi, uning atmosferasini yaratadi, mahalliy aholining madaniy mol-mulkni harid qilishga bo'lgan qiziqishi madaniy turizmning barcha infratuzilmasini shu jumladan, madaniy sanoatni rivojlantirish uchun zarur.

**Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkin bo`ladiki**, turizm sohasi bu davlat uchun eng ahamiyatli va samarali sohasidir, shunday ekan uni rivojlantirish, har tomonlama qo`llab quvvatlash, turli chora tadbirlar ko`rish lozim bo`ladi. Ayniqsa, madaniy turizmni rivojlantirish orqali turizmning boshqa turlari ham rivojlanishiga yordam beradi. Madaniy turizmdan foydalanish insonning sog`ligi, dunyo qarashi, kayfiyati va bilim darajasi uchun ahamiyatlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Raximov Z.O. Turizm destinatsiyalarida strategik rejalashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish. // Dis. ...i.f.n. – S.: 2012.
2. Usmanova D.K. Osobennosti formirovaniya turistskogo produkta i perspektivnye napravleniya ego razvitiya. Dis....kand.ekon.nauk.– S.: SamISI, 2009.– 157s.
3. Safarov B.SH. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisod fanlari nomzodi dis. – S.: SamISI, 2011. – 150 b.
4. Menejment turizma: Osnovy menejmenta: Uchebnik/ Red. kollegiya: Kvartalnov V.A. i dr. – M.: “Finansy i statistika”, 2003. – 133 s
5. Jukova M.A. Menedjment v turistskom biznese: uchebnoe posobie. 2-e izd., ster. M.:KNORUS, 2006. – S. 16-
6. Kabushkin N.I. Menedjment turizma: Uchebnik. 4e izd., stereotip. Mn.: Novoe znanie, 2004. – S. 35-36.
7. Mamatqulov X.M. Xizmat ko`rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug`ati. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 398 b.